



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 56 sahifa,
6-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
Omonova Nilufar Parda qizi	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
Xujanova Shaxina Abdullayevna	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari	24
Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionlashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
Nuraliyeva Dilshoda Yo'lichiboy qizi	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
V. Sh. Raximov	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni	46
Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli	51
Vasila Yusupova	

MALAKAVIY O'QUV AMALIYOTI JARAYONIDA BO'LJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK TA'MINOTNING AHAMIYATI

Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
"Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya: Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda malakaviy o'quv amaliyotining o'rni, uning didaktik ta'minoti, mazmuni va tarkibiy qismlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, amaliyot jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda innovatsion metodlarning samaradorligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, malakaviy amaliyot, didaktik ta'minot, pedagogik texnologiya, tarbiyachi, refleksiya, mentorlik.

Abstract: The role of qualification training practice in the formation of professional competencies of future educators, as well as its didactic support, content, and structural components, is analyzed from a scientific-theoretical perspective. In addition, the effectiveness of modern pedagogical technologies and innovative methods used during the practice process is highlighted.

Key words: professional competence, qualification practice, didactic support, pedagogical technology, educator, reflection, mentoring.

Аннотация: С научно-теоретической точки зрения проанализирована роль квалификационной учебной практики в формировании профессиональных компетенций будущих воспитателей, её дидактическое обеспечение, содержание и структурные компоненты. Также освещена эффективность современных педагогических технологий и инновационных методов, применяемых в процессе практики.

Ключевые слова: профессиональная компетенция, квалификационная практика, дидактическое обеспечение, педагогическая технология, воспитатель, рефлексия, менторство.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoni ularning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikma va malakalarini ham shakllantirishni talab etadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun tarbiyachilar tayyorlashda malakaviy o'quv amaliyoti muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu jarayonda didaktik ta'minotning to'g'ri tashkil etilishi kasbiy kompetensiyalarni samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagog kadrlar tayyorlash jarayoniga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimi uchun raqobatbardosh, yuqori malakali tarbiyachilarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda malakaviy o'quv amaliyoti alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu jarayonda nazariy bilimlar amaliyot bilan uyg'unlashadi. Shu nuqtayi nazardan, amaliyotning didaktik ta'minotini ilmiy asosda tashkil etish muhim hisoblanadi.

O.E. Lebedev "kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'lim maqsadlarini belgilash, ta'lim mazmunini tanlash, ta'lim jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholashning umumiy tamoyillari majmui" deb ta'riflaydi.



Lebedevning yondashuvini tahlil qilish jarayonida shuni anglash mumkinki, ta'limning maqsadi bilim emas, balki amalga yo'naltirilgan kompetensiyalar majmuini shakllantirishdan iborat bo'lib, bu tamoyil ayniqsa malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida o'z ifodasini topadi. Sababi, amaliyot davrida talaba nazariy bilimlarini real muammolarni hal etishda qo'llab, o'zining mustaqil fikrlashi, muloqot qilish, qaror qabul qilish, kasbiy etikani anglash kabi kompetensiyalarini namoyon qiladi.

Professor N. Muslimovning ta'rifi ko'ra, kasbiy kompetentlik mutaxassisning o'z faoliyatini samarali amalga oshira olishi uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va malakalarning o'zlashtirilganligi bilan birga, ularni real ish faoliyatida puxta va samarali qo'llay olish salohiyatini ham o'z ichiga oladi. Bu yondashuvda kompetentlik faqatgina bilimga asoslanmasdan, balki uni amaliyotda qo'llash qobiliyati bilan bog'lanadi.

Yuqoridagi olimlarning ishlarini tahlil qilib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish deganda malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarning tizimli yondashuv asosida kasbiy muammolarni hal qilish, pedagogik o'zgarishlarga moslasha olish, bo'lajak mutaxassisning egallagan nazariy va amaliy tajribalarining uyg'unligi tushuniladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kasbiy kompetensiya mutaxassisning o'z faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuasidir. Bo'lajak tarbiyachilar uchun bu quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- pedagogik bilimlar;
- psixologik yondashuvlar;
- bolalar bilan muloqot ko'nikmalari;
- tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish qobiliyati.

Malakaviy o'quv amaliyoti talabalarni real pedagogik muhitga olib kiradi. Bu jarayonda ular:

- nazariy bilimlarini amaliyotda sinab ko'radilar;
- bolalar bilan ishlash tajribasini orttiradilar;
- mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Amaliyot jarayoni kasbiy shakllanishning muhim bosqichi bo'lib, u pedagogning professional identifikatsiyasini ta'minlaydi.

Didaktik ta'minot ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan metodlar, vositalar, o'quv materiallari va texnologiyalar majmuasidir. Malakaviy amaliyotda didaktik ta'minot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quv dasturlari va metodik qo'llanmalar,
- kuzatuv va tahlil varaqalari,
- interfaol metodlar va
- baholash mezonlari.

Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, raqamli resurslardan foydalanish, amaliyot rahbarlari malakasini oshirish va talabalarning mustaqil ishlashini qo'llab-quvvatlash jarayonlarida namoyon bo'ladi.

Kasbiy kompetensiya tushunchasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o'rganilgan bo'lib, u mutaxassisning kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga tayyorligini ifodalaydi. Kasbiy kompetensiya quyidagi komponentlardan iborat:

- kognitiv komponent;
- faoliyat komponenti;
- shaxsiy komponent;
- kommunikativ komponent.

Bo'lajak tarbiyachilar uchun ushbu komponentlarning uyg'un rivojlanishi muhimdir.

Malakaviy o'quv amaliyoti talabalarni real kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim bosqichi bo'lib, ularning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy tajribasini boyitishga xizmat qiladi.

Kasbiy kompetensiyasi rivojlangan bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda amaliyotning asosiy vazifalari:

- pedagogik jarayonni kuzatish va tahlil qilish,
- mustaqil mashg'ulotlar o'tkazish,
- tarbiyaviy ishlarni tashkil etish,
- bolalar psixologiyasini o'rganishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lajak tarbiyachilar mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil qilishdan asosiy maqsad tarbiyachi-pedagogning amaliy-metodik faoliyatini o'rganish, pedagoglik mas'uliyatini his qilish va oshirish, mashg'ulot samaradorligiga erishish yo'llarini o'rganishdan iborat. Amaliyot jarayoni talabalarda kasbiy moslashuv va ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

Didaktik ta'minot ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Didaktik ta'minotning sifatli tashkil etilishi amaliyot samaradorligini oshiradi.

Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida didaktik ta'minotni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, raqamli ta'lim resurslarini kengaytirish, amaliyot rahbarlarining kasbiy malakasini oshirish, individual ta'lim traektoriyasini yaratish hamda xalqaro tajribalarni o'rganish va joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rishda tarbiyachidan mavzuning ishchi dastur va taqvimiy rejaga mosligiga e'tibor berish, mashg'ulot ishlanmasi, turli didaktik tarqatma materiallar va ko'rgazmali qurollarni tayyorlash talab etiladi. Bu jarayonni bo'lajak tarbiyachilar kuzatib o'rganishlari lozim.

Har bir tashkil etilgan mashg'ulotga davlat ta'lim standartlari va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga mos ravishda aniq maqsad qo'yish, mashg'ulot o'tiladigan xonani tayyorlash, xonaning tozaligi, barcha ko'rgazmali qurollarni tayyorlashga e'tibor qaratish zarur. Shuningdek, mavzuning ilmiyligi va izchilligi, oddiydan murakkabga yo'naltirilganligi, ko'rgazmalilik, berilayotgan bilim va yangi axborotlarning hayotiyliigi, jonli va ravon tilda bayon etilishi muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, o'quv dasturi asosida mavzuga ajratilgan soatlarning mosligi, tarbiyachining yoshi va shaxsiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni o'ylashga, izlanishga undashi, ijodkorlik, uslubiy mahorat hamda ilg'or pedagogik va novatorlik tajribalaridan foydalanishga e'tibor qaratiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Malakaviy pedagogik amaliyot davomida amaliyotchi talabalar maktabgacha ta'lim tashkilotining ijtimoiy muhiti, ta'lim muhiti, tashkilot subyektlari o'rtasidagi munosabatlar, ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchilar bilan ishlash prinsiplari, mediasavodxonlik kabi yo'nalishlar bo'yicha muhim, amaliy faoliyatga asoslangan ko'nikmalarni egallashlari lozim.

Bu jarayonda kasbiy kontekstdagi nazariy bilimlarni amaliy vazifalarga maqsadli strategiyalash talabalar faoliyatining samaradorligini oshirib, ularni real pedagogik vaziyatlarga tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, har bir talaba fan yuzasidan ochiq mashg'ulotlarni individual rivojlanish traektoriyasi tarzida tashkil etishi, mashg'ulot jarayonida tarbiyachilar va talabalar o'rtasidagi munosabatlarni kuzatishi hamda pedagogik faoliyatni mustaqil olib borish ko'nikmalarini shakllantirishi zarur. Bu jarayonda ham kasbiy kontekstdagi nazariy bilimlarni amaliy vazifalarga maqsadli strategiyalash orqali talabaning tashkiliy, kommunikativ va metodik kompetensiyalari rivojlanadi.

Bundan tashqari, talabalar mashg'ulot jarayoniga oid barcha o'quv-me'yoriy hujjatlar bilan tanishib, ularni tahlil qilish va amaliy faoliyatda qo'llashni o'zlashtiradilar. Aynan kasbiy kontekstdagi nazariy bilimlarni amaliy vazifalarga maqsadli strategiyalash ushbu bilimlarni tizimli ravishda amaliyotga tatbiq etish, pedagogik jarayonni samarali tashkil etish va bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish didaktik ta'minotning puxta va tizimli tashkil etilishiga bog'liq. Samarali didaktik vositalar va metodlar orqali talabalar o'z kasbiy salohiyatini to'liq namoyon eta oladilar. Bu esa kelajakda malakali va raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.



Bo'lajak tarbiyachining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik kuzatuv va tahlil malakaviy amaliyotni bosqichli tashkil etishning samaradorligini o'lchash va tahlil qilish uchun tizimli monitoringni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak tarbiyachining amaliyot jarayonida erishgan muvaffaqiyatlarini baholash, malakaviy amaliyot jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
3. Лебедев О. Э. (2004). Компетентностный подход в образовании // Педагогика. – № 10. – С. 31–37.
4. Ramazonova B. (2023). Pedagogical-psychological factors of improving the methodology of developing professional competences of future educators during the process of qualified educational practice. *Science and Innovation*, 2(B4), 228–230.
5. Sadriddinovna R. B. (2022). Fundamentals of development of students' learning competencies in the course of pedagogical practice. *Thematics Journal of Education*, 7(4).
6. Ramazonova B. (2025). Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik ta'minoti. *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*, 3(3).
7. Akmalovna M. D., Sadriddinovna B. R., & Qizi B. E. Z. (2023). Maktabgacha ta'limda rivojlanuvchi texnologiyalarni qo'llash usullari. *Science and Innovation*, 2(Special Issue 13), 538–540. Zimnyaya I. A. *Pedagogik psixologiya*. – Moskva, 2004.
8. Maxmudova D., & Bahoroy R. (2023). Technologies of preparing future teachers for professional activity on the base of a competent approach. *Modern Science and Research*, 2(10), 118–122.
9. Sadriddinovna R. B. (2025). Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik ta'minoti. *Образование, наука и инновационные идеи в мире*, 80(4), 266–269. Azizxo'jayeva N. *Pedagogik mahorat*. – T., 2018.
10. Muslimov N. A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: diss. avtoreferati. – T.: TDPU, 2007.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.